



SHIFOBAXSH NAMANGAN SHOLG'OMI

X.X.Tursunboyev¹, Sh.V.Abdullayev¹, N.A.Axmedova¹

Namangan davlat universiteti

tursunboyevxusaynjon@gmail.com

Annotatsiya: Maqola Namangan viloyati Chust tumanida o'sadigan sholg'omni fitokimyoviy o'rganishga bag'ishlangan. Flavonoidlar, vitamin K, B1 sholg'omda topilgan.

Аннотация: Статья посвящена фитохимическому исследованию репы произрастающей в Чустком тумане Наманганская области. В составе репы обнаружены флаваноиды, витамин К, В1.

Abstract: The article is devoted to the phytochemical study of turnips growing in the Chust fog of the Namangan region. Flavonoids, vitamin K, B1 were found in turnips.

Kalit so'zlar: Sholg'om, vitaminlar va ularning miqdori, temir deficit anemeya, efir moylari, bakterisid moddalar

Ключевые слова: Репа, витамины и их количество, железодефицитная анемия, эфирные масла, бактерицидные вещества.

Key words: Turnip, vitamins and their amount, iron deficiency anemia, essential oils, bactericidal substances

Bugungi kunda kasalliklarga qarshi kurashish ya'ni davosi qiyin kasalliklarga davo izlash tibbiyat va kimyoning oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday dori vositalari asosan tabiiy biologik faol moddalarni kimyoviy yo'l bilan modifikatsiyalangan shakllari va mutlaq sun'iy yo'l bilan olinadi. Ayrim sun'iy preparatlar inson organizmida aks ta'sirini ko'rsatib yangi kasalliklarni paydo bo'lishga olib kelmoqda. Shuning uchun tabiiy biologik faol moddalarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu talabni qondirish esa, tabiiy o'simliklarni tarkibini o'rganish va biologik faol moddalarni ajratib olish bilan amalga oshiriladi. Namangan sholg'omi ham dorivor moddalarga boy o'simliklardandir. Namangan sholg'omi 1949-yilda mahalliy selleksionerlar tomonidan Andijon, Namangan, Farg'ona hududlarida ro'yxatga olingan. Uni tarkibi va dorivor hususiyatiga to'xtalishdan oldin u haqida qisqacha ma'lumot. Namangan sholg'omi sariq, ildizi 8sm dan 20 sm gacha va og'irligi 10 kg ga qadar bolishi mumkin. Mevasi qo'zoq (bo'yi enidan 3 marta va undan ham uzun) ko'pincha tubida ikki pallaga bo'linib



ochiladi. Namangan sholg'omi 54-60 kunda yetiladi. Sholg'om salqin joyda dorivor fazilatlarini yo'qotmay uzoq vaqt davomida saqlanishi mumkin. Bundan tashqari uni quritib maxsus idishlarda yoki tuzlamalar holida ham saqlash mumkin. Bu esa sholg'omga bo'lgan ehtiyojimizni yil davomida qondiradi.

Vitaminlar va ularning miqdori

- Vitamin B₁ (tiamin) – 0. 04 mg
- Vitamin B₂ (riboflavin) - 0. 030 mg
- Vitamin B₅ (pantotenkislota) - 0. 200 mg
- Vitamin B₆ (piridoksin) - 0. 090 mg
- Vitamin C (askorbin kislota) – 21 mg
- Vitamin E (tokoferol) – 0. 03 mg
- Vitamin B₃.-400mg
- Vitamin K. -----0. 1 mkg
- Vitamin B₉ -----15mkg

Piridoksinqsil, yog', uglevodlar almashinishida qatnashadi va qonda gemoglobin darajasi miqdoriga ta'sir qiladi, moddalar almashinishini tezlashtiradi va qonda shaker miqdorini muvozalantiradi. U yetishmaganida temir defisit anemiya boshlanishi mumkin.

Sholg'omda ko'p efir moylari va organik kislotalar bor. Sholg'omdag'i efir moylari insonlar ishtahasini ochadi, oziqa hazm qiluvchi sharbatlarni ajratadi, diyetik maxsulot hisoblanadi, buning sababi unda karotin, vitaminlardan B1, B2, PP, pantoten kislota, B6, C bordir. Sholg'om tabiiy antibiotik bo'lib, tarkibidagi bakterisid moddalar virus va baklteriyalarga faol ta'sir qiladi. Sholg'om antiseptik xossasiga ega va bakteriya kletkalarini buzadi

Flavanoidlarga xos reaksiyalar

Qo'rg'oshin atsetat bilan reaksiya. Flavonoidlarning chinni idishchadaoligan spirtli eritmasiga qo'rg'oshin (II)- atsetat spirtli eritmasidan qo'shib aralashtiriladi. B xalqada bo'sh xolda ortogidroksil guruxi bo'lgan flavonlar, xalqonlar vaauronlar qo'rg'oshin (II)-atsetat eritmasi tiniq sariq yoki qizil rangli cho'kmaxosil qiladi. Agar qo'rg'oshin (II)-atsetat o'rnila qo'rg'oshin (II-gidroatsetat eritmasi qo'llanilsa, flavonoidlarning qariyib hammasi rangli cho'kma beradi. Bu reaksiyada antotsianlar qizil yoki ko'k rangli cho'kma hosil qilishi mumkin.

Alyumniy xlорid bilan reaksiya. O'simlikdan tayyorlangan flavonoidlarning 5 ml spirtli ajratmasiga alyumniy xlорidning 5 % li eritmasidan bir necha tomchi tomizilsa, ko'philik flavonoidlar sariq rang xosil qildi.



Temir (III) xlorid bilan reaksiya. O'simlikdan tayyorlangan flavanoidlarning 5 ml srirtli ajratmasiga temir III xloridning spirtdagি 5 % li eritmasidan bir necha tomchi qo'shilsa, to'q zangori, to'q binafsha, to'q yashil yoki yashil rang xosil bo'ldi. Menda jigarrang (korichniviy) rang berdi. Temir (III) xlorid eritmasi bilan flavonoidlarning hamma guruhlari rangli reaksiya beradi. Demak flavanoidlar borligi tasdiqlandi

Vitaminlarga xos reaksiyalar

1. Vitamin K ga xos reaksiya. Sholg'om ildizmevasidan tayyorlangan 1%li spirtli ekstraktdan 5ml olib probirkaga quyib ustiga 1 ml anilin quyib chayqatildi. Probirkadagi aralashma qizil rangga kirdi. Demak, sholg'om tarkibida K vitamin bor. Chunki adabiyotlardan ma'lumki K vitamini ya'ni 2-metil -1,4-naftaxinen anilin bilan reaksiyaga kirishib qizil rangli 2-metil -3-fenilamino 1,4 naftaxinon hosil bo'ldi.

2. Vitamin B1 ga xos reaksiya Suvli ekstraktdan 6ml olib stakanga quyildi va ustiga 10 tomchi qizil qon tuzining 5%li eritmasidan va KOH ning 30%li eritmasidan quyildi. Kolbadagi suyuqlik sariq rangga kirdi. Demak, Namangan sholg'omi ildizmevasi tarkibida B1 vitamini bor. Chunki bu reaksiyada tiamin tioxromga o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nabihev A.S, Odilov „O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi”. “Toshkent O'qituvchi” 1987,
2. Madrahimov A.S „O'simlik va inson salomatligi (qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri) Toshkent- O'zbekiston-1996 yil
3. Xolmatov X.X, Ahmedov O'.A, „Farmakoknoziya”. Toshkent. 1995. bet
4. Nabihev A.S, Odilov „O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi”. “Toshkent O'qituvchi” 1987
5. Abdullayev Sh.V, Shoxidoyatov X.M, Raxmatova M.J, Umarova N. „Tabiiy birikmalar kimyosidan praktikum”. uslubiy qo'llanma 2010. 131 – bet.
6. „Biorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar”. Toshkent, 1995